O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI

«TASDIQLAYMAN»	«MA’QULLANDI»
Buxoro davlat universiteti	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK raisi
rektor _____ O.X. Xamidov	_____ A.T. Yusupov
2024 y «12» «fevral»	2024 y «8» «05»

Chet tili (ingliz, nemis, fransuz) fanlari bo‘yicha malakaviy imtihon DASTURI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil «8» 05 354/4 -sonli qarori bilan tasdiqlangan

Buxoro - 2024

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston Respublikasida chet tilining ijtimoiy ahamiyatiga e’tibor ortayotganligi, xorijiy tilni mukammal biluvchi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi tufayli bo‘lg‘usi jurnalistlarga ham xorijiy tilni puxta o‘zlashtirish talabi qo‘yilmoqda. Shu nuqtai nazardan ilmiy soxa mutaxassislariga sohaga yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitish barobarida ularni “Xorijiy tilni bilishning umumevropa kompetensiyasi: o‘rganish, o‘rgatish, baholash”, ya’ni CEFR talablari asosida tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Dastur mazmuni nutq faoliyati turlarini o‘rganishi darajalarini hamda nutq va til materiallarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Nofilologik yo‘nalishlarda Xorijiy tilni o‘rganishdan asosiy maqsad – mutaxassislarda kundalik haètlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayèrlash. Shu bilan birga, ularda vatanparvarlik hissini rivojlantirish, mustaqil izlanish, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, hamda umumbashariy va sohaga oid mavzularda ilmiy maqolalar èza olish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar ilgari suriladi:

Talabgorlarning nutq (o‘qish, èzish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirish;

ilmiy, kasbiy va maishiy faoliyatga bog‘lik mavzular yuzasidan og‘zaki va èzma baèn etish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag‘rikenglik va millatlararo hamdustlik hislarini singdirish;

ilmiy va kasbiy faoliyatda ko‘llaniladigan termin va atamalarni bilish;

talabgorlarning ilmiy va sohaviy yo‘nalishlaridan kelib chiqib, mustaqil ish topshiriqlarini to‘g‘ri va aniq bajarishini tashkil etish.

Ushbu dastur talabgorlar uchun belgilab berilgan V2 (CEFR) va undan yuqori darajalarni egallashga qaratilgan. Ushbu darajaga erishish talabgorlarda ilmiy va sohaviy faoliyatda yuzaga keladigan til bilan bog‘liq vaziyatlarda erkin muloqotga kirish ishlarini va vaziyatni samarali hal qilishlarini ta’minlaydi.

Dastur talabgorlarining o‘rganayotgan Chet tilidan olgan bilimlari asosida og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishni, ulardan kelgusi ilmiy va kasbiy faoliyatlarida to‘la foydalanishni hamda kommunikativ, lingvistik, sosiolingvistik,

diskursiv, strategik, kasbiy, umummadaniy kompetentligini integrallashgan yondashuv asosida rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Chet tili fani bo‘yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturining asosiy mazmuni

Chet tili fanining maqsadi talabgorlarning o‘zga tilda muloqot yuritish malakasi va mahoratini lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy bilimlar vositasida rivojlantirishdan iborat.

“Chet tili”ni o‘rganish tarkibiga o‘qib axborot olish, tarbiya va rivojlanish nuqtai nazaridan chet tilini kommunikativ o‘qitish jarayonida berilishi mumkin bo‘lgan ma’naviy boyliklar kiradi.

Talabgorlar o‘z kasbiy faoliyatida hamda kundalik hayotida chet tilidan samarali va erkin foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilish kerak.

Talabgorlar mutaxassislikka oid matnlarini tahlil qilishi, til sohibi nutqini to‘liq tushunishi, umumgumanitar xarakterga ega bo‘lgan, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi va mutaxassislikka oid adabiyotlardan axborot olish, axborot almashish imkoniga ega bo‘lishi lozim.

Fanining maqsadi – talabgorlarda lingvistik, kommunikativ, lingvomamlakatshunoslik, lingvomadaniy, ilmiy hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdir.

- Lingvistik kompetentlik til tizimi haqidagi bilim va uning xorijiy tilda kommunikatsiya jarayonida amal qilish qoidalarini o‘z ichiga qamrab oladi.
- Kommunikativ kompetentlik nutqiy kommunikatsiya shartlariga binoan xorijiy tilda kommunikatsiya jarayonini nazarda tutadi. Muomala (nutq) vaziyati, murojaat kimga qaratilgani va suhbatdoshlarning o‘zaro munosabatini kommunikatsiya jihatdan shakllantiradi.
- Lingvomamlakatshunoslik kompetensiya tili o‘rganilayotgan mamlakat tarixi, ijtimoiy-siyosiy tizimi, geografik o‘rni, boshqa davlatlar bilan o‘zaro lingvostrategik aloqalari (kabilarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi).
- Lingvomadaniy kompetensiya tili o‘rganilayotgan mamlakatning ayni paytdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivoji va shunga mos tarzda nutq muomala madaniyati haqida tasavvurga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Og‘zaki va yozma nutq amaliyotining tarjimaga yo‘naltirilgan malakalarini egallashni shakllantiradi.
- Ilmiy kompetentlik til o‘rganuvchidan o‘z sohasi bo‘yicha ilmiy axborotlarni, tadqiqot natijalarini, xorijiy davlatlarning ilmiy yutuqlarini o‘rganish va o‘z ilmiy faoliyatlarida foydalanishdan iborat.
- Kasbiy kompetensiya magistrning egallayotgan mutaxassisligi

bo‘yicha xorijiy til orqali kasbiy yangiliklar, innovasion loyihalarni hayotga tatbiq eta olish, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni nazarda tutadi.

Fanning vazifasi –sanab o‘tilgan barcha kompetensiyalarga erishish – kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga, shuningdek ularning o‘rganayotgan amaliy chet tillardan birida ravon va aniq so‘zlashishlariga va hozirgi paytda dunyoda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka o‘z munosabatlarini bildira olishlarini hamda mustaqil fikrlash, izlanish, bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Fan bo‘yicha talabgorlarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar

Chet tiliga ixtisoslashmagan mutaxassisliklar talabgorlari CEFR ga ko‘ra V2 darajani egallashlari ko‘zda tutiladi.

Lingvistik kompetensiya - mazkur kompetensiyada talabgorlar:

tinglab tushunish bo‘yicha

- o‘rganilayotgan tilning morfologik tuzilishi va tovush tizimi;
- o‘rganilayotgan tildan ona tiliga tarjima amaliyoti bilim, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lish;
- o‘rganilayotgan tilning rivoji va til doirasidagi asosiy ekstralingvistik shakllanishning faktorlari hamda tarixiy manbalari, uning dialektik xilma-xilligini tushunish;
- o‘rganilayotgan chet tilidagi e’lon va xabarlarni tushuna olish;
- ma’ruza nutq, bayonot, ilmiy va ixtisoslik taqdimotlar, so‘rov va fikrlarning mohiyatini tushuna olish;
- mavzu yaxshi tanish bo‘lganda va axborot yo‘nalishi o‘rniga mos markerlar ko‘rsatilayotgan holatda davomli ma’ruza yoki dalillarning murakkab tizimini kuzata olish;
- radio, internet va televideniye dasturlari, intervyularning aksariyat qismini tushuna olish;

o‘qish bo‘yicha

- o‘z mutaxassislik sohalariga oid yoki oid bo‘lmagan keng ko‘lamli birmuncha uzun va murakkab matnlarning uslubiy jihatlari, ochiq oydin yoki birmuncha yashirin bayon etilgan fikrlarni aniqlagan holda tushuna olish;
- kichik detallarning ham muhim jihatlari, qarashlar, ochiq oydin yoki birmuncha yashirin bayon etilgan fikrlarni aniqlay olish;
- o‘z mutaxassislik sohalariga oid vebsayt yoki jurnallardan tegishli tafsilotlarni ola bilish;

yozish bo‘yicha
 stilistik xususiyatlari, me’yoriy grammatika asoslarini bilish;
 maxsus nomalar, biznes xatlar, elektron xatlar yoza olish;
 o‘rganilayotgan tilda yaxshi tuzilgan insho va ma’ruzalar yoza olish;
 takliflar, xulosalar va tezislar yoza olish;
gapirish bo‘yicha
 o‘rganilayotgan tilda so‘zlashuvchilar bilan muloqotga kirisha olish (zarur bo‘lganda boshqara olish);
 o‘z sohalariga oid intervyuda qatnasha olish;
 rasmiy doiralarda (masalan seminar va h.k.lar)xos ravishda savol-javobda ishtirok eta olish;
 ma’lum mavzu bo‘yicha taqdimot qila olish kabi bilim, ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Kommunikativ kompetensiya
 mos kommunikativ vaziyatda diskurs tanlay olish;
 yuzaga kelgan muammoning mohiyatini tushuntira olish va mijozga zaruriyat tug‘ilganda rozilik borasidagi xizmatni taqdim qiluvchi shaxsga tushuntira bilish;
 til shakllarini tanlay bilish va ularni nutq mazmuni bo‘yicha kommunikativ vaziyatlar doirasida kasbiy matnga muvofiq tarzda qo‘llash va o‘zgartira olish;
 til egalarida hayratlanish yoki achchiqlanishni uyg‘otmaydigan, ular uchun tabiiy, odatiy sanalgan muomalada muloqot qila olishni bilishlari lozim;

Lingvomamlakatshunoslik kompetensiyasi
 nutq mazmuni bo‘yicha kasbiy kommunikativ vaziyatlar doirasida ekvivalentsiz kasbiy so‘zlarni bilish va ularni matnlarda (jumladan, ma’lumotnomalardan foydalangan holda) tushunish;
 tili o‘rganilayotgan mamlakatdagi kasbiy faoliyatning ob’yektini anglatuvchi so‘zlarni bilish;
 tili o‘rganilayotgan mamlakatda qabul qilingan kasbiy muloqot me’yorlariga muvofiq tarzda nutqiy muomalani va odob (etiket) qoliplarini qo‘llay bilish.
 insonlarga nisbatan hurmat, boshqa madaniyatga tolerantlikni saqlagan holda jamiyatda qabul qilingan odob-ahloq va huquqiy me’yorlar asosida ijtimoiy hamkorlikni, sherikchilik, ishonchli munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashda javobgarlikka tayyor ekanligini namoyon eta olishlari zarur.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Chet tili fani har bir mutaxassisliklarning nazariy va amaliy fanlar hamda iqtisod, geografiya, mamlakatshunoslik, siyosatshunoslik, psixologiya, O‘zbekistonning yangi tarixi kabi bir qator fanlar bilan bevosita bog‘liq. Talabgorlarlar ushbu fanlar bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini Chet tilida muloqot jarayonida erkin qo‘llay olishlari nazarda tutiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Chet tili fani ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘lanmagan. Talabgorlar “Chet tili” fani doirasida o‘rgangan bilimlaridan turli davlat va nodavlat tashkilotlarda hamda qo‘shma korxonalarda faoliyat ko‘rsatishlari jarayonida foydalanadilar. Bu esa ularning kasbiy faoliyatida chet tillarni amaliy qo‘llash malakasini rivojlantiradi.

Nutqiy kompetensiyaning o‘qish, èzish, tinglab tushunish va gapirish ko‘nikma va malakalari integratsiyalashgan ravishda olib boriladi. Mavzuning mohiyati va mutaxassislik xususiyatlaridan kelib chiqib, u èki bu ko‘nikma va malaka asosiy bulib bunda:

dialog - ijtimoiy mavzularda suhbat va norasmiy dialog; kasbiy èki boshqa mavzularda rasmiy va norasmiy munozaralar; munozarani boshqarish, intervyu, muzokaralar va telefon orqali muloqot olib borish;

monolog - ixtisoslikka oid mavzularda ma’ruza tayèrlash va o‘qish; munozara, dalil va isbotlarni olg‘a surish, fikrni asoslab berish; maxsus mavzularda taqdimot tayèrlash hamda chiqish qilish; ma’lumotlarni umumlashtirish, maqolalar èzish, muhokama qilish;

o‘qish – tanishuv o‘qish, ko‘z yugurtirib o‘qish va sinchiklab o‘qish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish; xat-xabar, èzishmalar va elektron pochtani o‘qish; maxsus materiallarni o‘zida aks ettirgan autentik matnlarni o‘qish; maxsus so‘z va terminlarga ega matnlarni, ilmiy va kasbga oid adabiètlarni, elektron manbalar va matbuot materiallarini o‘qish;

Yozma nutq – turli èzishmalar, xat-xabarlar va maxsus dokladlar (eslatma CV va hokazo) èzish; esse, baèn, rezyume, tadqiqot ishi (maqolalar, bitiruv malakaviy ishlar) èzish;

Tinglab tushunish - autentik materiallarni 2 marta eshitib asosiy mazmunini tushunish, zarur axborotni olish va uni baèn eta olish; kundalik yangiliklar, reportajlarni, film qahramonlari nutqini tushunish.

<u>Bilim va ko‘nikmalarni sohaga yo‘naltirish</u>

Kasbga yo‘naltirilgan bosqichning asosiy maqsadi:

- Nutq turlari bo‘yicha kasbiy sohada chet tilini amaliy egallash;
- talabgorni ijodiy shaxs sifatida rivojlantirish;
- soha bo‘yicha adabiètlarni tarjima qilish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

ASOSIY QISM

Dasturining asosiyqismi mazmuni lingvistik kompetensiyalar bo‘yicha quyidagicha ko‘rinishda aks etadi:

O‘qish:

Turli mavzular va sohaga oid matn (1200 - 1500 belgi) ustida ishlash.

Yozuv:

- tabriknomalar èzish;
- norasmiy va rasmiy xatlar èzish;
- turli mavzulardagi matnlarga qisqacha xulosa (Summary) èzish;
- turli mavzularda 200-250 so‘zdan iborat esse èzish.

Tinglab tushunish:

- radio, internet va televideniye dasturlari va ulardauzatilgan intervyularni;
- tanish va notanish kontekstdagi murakkab autentik nutqni tinglab tushunish.

Gapirish:

Umumiy mavzular - o‘zi haqida, oilasi haqida, ish kuni, sevimli mashg‘uloti, bo‘sh vaqtini o‘tkazishi, kundalik haèt va h.k.;

Ijtimoiy mavzular - maishiy masalalar,shaxs va kasb psixologiyasi va odobi, atrof-muhit muhofazasi, global muammolar;

Ijtimoiy-madaniy mavzular – ilmiy va sohaga oid vaziyatlarda madaniy tafovutlar, dunè va tili o‘rganilaètgan mamlakatlar, ularning madaniy, ijtimoiy xususiyatlari,xorijiy til va uning tutgan o‘rni;

Ta’lim mavzulari - ta’lim tizimi, davomli ta’lim, dunèning yetakchi universitetlari, ma’ruzalar, ilmiymakola, tezislarèzish, o‘qish, o‘rganish va taqdimot qilish strategiyalari;

Internet va axborot texnologiyalariga oid mavzular – jaxon va yurtimiz miqèsidagi fan va texnika yangiliklari, yutuqlari, kashfièt va ixtirolar, internet tarmoqlaridan foydalanish, so‘nggi texnologiyalar;

Mutaxassislik sohasiga oid mavzular - soha yo‘nalishlari, dolzarb mavzulari, hujjatlar yuritish, kasbiy etika, muzokaralar olib borish, mutaxassislik sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlar, innovasion g‘oyalar va yangiliklar, sohaning yetakchi olimlari va ularning fandagi o‘rni.

Chet tilining fonetika va grammatika qismlari bo‘yicha umumiy ma’lumot

O‘rganilayotgan tilning tovush tizimi urg‘u, intonatsiya, ritmik guruh,

so‘zlarning bog‘lanishi va morfologik tuzilishi, so‘z turkumlari: ot, sifat, son, fe’l, ravish, yordamchi so‘zlar, artikllar, predloglar, ravishdosh, sifatdosh fe’llarning

aktiv va passiv formalari, modal fe’llar, kon’yuktiv 1, kon’yuktiv 2, infinitiv va infinitivli konstruksiyalar modal so‘zlar, modal yuklamalar, fe’l zamonlari, murakkab to‘ldiruvchi, otlarning ko‘plik formasi, sifatlarda rodning ifodalanishi, gap bo‘laklari va ularning umumiy tasnifi, zamonlarning moslashuvi ko‘chirma va o‘zlashtirma gap.

Chet tilining sintaksis qismi bo‘yicha umumiy ma’lumot

Gap, sodda gap, bir bo‘lakli gaplar, ikki bo‘lakli gaplar. Qo‘shma gaplar.

Aniqlovchi ergashgan, ega ergashgan, maqsad ergashgan, to‘ldiruvchi ergashgan,hol ergashgan, ravish ergashgan, natija ergashgan, sabab ergashgan, shart ergashgan, to‘siqsiz ergash gaplar, aktiv va passiv forma, passiv formaning alternativalari.

Chet tilining leksika qismi bo‘yicha umumiy ma’lumotlar

Mutaxassislikka oid termin va tushunchalar. Abbreviatura, akronim va toponimlar. Idiomalar, frazeologik birliklar. Ko‘p ma’noli so‘zlar, so‘z birikmalari, erkin birikmalar, fe’lli turg‘un birikmalar. O‘zlashgan so‘zlar. Klishelar. Lug‘atlar va ularning tarkibi. Tillardagi realiyalar, muqobilsiz leksikalar.

Kommunikativ kompetensiya

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi mavzularda suxbat uyushtiriladi:

1. Kelajakdagi mutaxassis kasbiy faoliyati.
2. O‘z mamlakatining egallayotgan sohasi bo‘yicha rivojlanish tarixi va bugungi kuni, milliy qadriyatlari.
3. Egallayotgan sohasi bo‘yicha tili o‘rganilayotgan mamlakatning rivojlanish tarixi, bugungi kuni va milliy qadriyatlari.
4. Davrning eng dolzarb muammolari va ularning yechimi:
- Globallashuv va integratsiya (turli mamlakatlar iqtisodiy hayotining yagona iqtisodiy siyosat asosida o‘zaro bog‘langan holda rivojlanish shakli).
- Terrorizm, odam savdosi, giyohvandlik, ishsizlik kabi illatlarga qarshi kurash;
- xalqaro iqtisodiy inqiroz;
- innovasion texnika rivoji;
- ekologiya va salomatlik;
5. Xalqaro hamkorlik:
- kasbiy faoliyat;
- geografik joylashuv;
- ijtimoiy-siyosiy munosabatlar;
- madaniy-ma’rifiy munosabatlar;
- xalqaro turizm va uni rivojlantirish konsepsiyasi.

Imtihonning javoblarini baholash umumiy mezonlari

Ball	Bilim darajasi
1	2
86-100	Kasb soha vakillari tomonidan minimal grammatika (Present Indefinite Tense, Present Continuous Tense, Past Indefinite Tense, Future Indefinite Tense) hamda sohaga oid faol so‘zlarni (minimal 400) yoddan bilsa, sohaga oid davrning eng dolzarb muammolarini o‘rganish, muhokama va tahlil qilish bilan bog‘liq mavzularda suhbatlashish malakalarini egallagan bo‘lsa, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash; xorijiy mutaxassislar bilan muloqot stereotiplari, elektron xatlar yozish ko‘nikmalariga ega bo‘lsa
71-85	O‘z javobida qo‘yilgan savol bo‘yicha mustaqil mushohada yuritgan bo‘lsa, ularning mohiyatini deyarli to‘liq ochib bergan bo‘lsa
55-70	Javobida fan bo‘yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo‘lsa, sohaga oid faol so‘zlari kam bo‘lsada, mavjud bo‘lsa
0-54	Javobida qo‘yilgan savol mazmuni yoritilmagan bo‘lsa, izohlar mavjud bo‘lmasa, ya’ni chet tili bo‘yicha talabgor javobida qo‘yilgan savollar bo‘yicha tasavvurga ega emasligi aniq bo‘lsa

Izoh: Tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari bo‘yicha topshiriladigan birinchi fan (mutaxassislik yoki chet tili) umumiy balining 50% dan kam ball to‘plagan talabgorlar keyingi bosqichga o‘tkazilmaydi.

Chet tili fani bo‘yicha baholash mezonlari

№	Umumiy ball	Talabgorning bilim darajasi
1	25	Chet tili grammatikasini bilish darajasi va til shakllarini tanlay bilish va ularni nutq mazmuni bo‘yicha kommunikativ vaziyatlar doirasida kasbiy matnga muvofiq tarzda qo‘llash ko‘nikmalarini aniqlovchi V2 darajasidagi testlar. Testlar soni 25 ta. Xar bir to‘g‘ri jabobga 1 ball.
2	22-25	1500-2000 bosma belgidan iborat asliy ilmiy matnni o‘qib ona tiliga tarjima qila oladi, o‘qish asnosida talaffuz qoidalariga rioya qiladi. Ilmiy va kasbiy faoliyatda ko‘llaniladigan termin va atamalar tarjimasini biladi
	18-21	Materialni fonetik qoidalar asosida o‘qib tarjima kila oladi, lekin ayrim noaniqliklarga yo‘l qo‘yagan, Matnning mohiyati tushunilgan, ammo mazmunni yoritishda tarjima yuzaki bajariladi. Ilmiy va kasbiy faoliyatda ko‘llaniladigan termin va atamalar tarjimasini biladi.

	14-17	1500-2000 bosma belgidan iborat asliy ilmiy matnni o‘qib ona tiliga umumiy mazmun saqlangan holda tarjima qila oladi, tarjimalarda g‘allizliklar kuzatiladi, o‘qish asnosida talaffuz qoidalarida buzilishlarga yo‘l qo‘yadi. Ilmiy va kasbiy faoliyatda ko‘llaniladigan termin va atamalar tarjimasini qisman biladi
	0-13	Matnni o‘qiy oladi, ammo tarjima qila olmaydi
3	22-25	Chet tilidagi 1000-1500 bosma belgidan iborat gazeta va jurnal maqolasini o‘qib erkin aytib bera oladi. Javobda PhD doktoranturaga kiruvchining ingliz tilida mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi
	18-21	Chet tilidagi 1000-1500 bosma belgidan iborat gazeta va jurnal maqolasini tushunadi maqolani aytib berishda qiynaladi. Mushohada bayonida va vazifani bajarishda fikr tarqoqligi kuzatiladi.
	14-17	Chet tilidagi 1000-1500 bosma belgidan iborat gazeta va jurnal maqolasini o‘qiganda umumiy tushunchaga ega biroq ingliz tilida aytib berishda grammatik xatoliklarga yo‘l qo‘yadi, tilning talaffuz normalariga rioya etmaydi, maqolani aytib berishda qiynaladi. Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan.
	0-13	Chet tilidagi 1000-1500 bosma belgidan iborat gazeta va jurnal maqolasini o‘qiy olmasligi mumkin, maqola bo‘yicha aniq yoki umuman tasavvurga ega emas.
4	22-25	Ilmiy ishi asosiy mazmunini ingliz tilida bayon qilishda ilmiy - ijodiy yondoshgan holda tadqiqot tahlili va ularning amaliyotga tadbiq etilishi bo‘yicha mustaqil, ijodiy fikr va mulohazalar mavjud. Muomala (nutq) vaziyati, murojaat kimga qaratilgani va suhbatdoshlarning o‘zaro munosabatini kommunikatsiya jihatdan shakllantira oladi. Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishiladi va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega. Mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay oladi, javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi, Javobda doktoantura (PhD)ga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Ijodiy yondoshuv mavjud;
	18-21	Ilmiy ishi asosiy mazmunini ingliz tilida bayon qilishda tadqiqot tahlili va ularning amaliyotga tadbiq etilishi bo‘yicha mustaqil, ijodiy fikr va mulohazalar mavjud. Nutqda bir nechta grammatik va fonetik xatoliklar kuzatiladi. Mavzu bo‘yicha savollar berilganida inglizcha nutqni tushunishda biroz qiynaladi. Aniqlik kirituvchi savollar beradi.
	14-17	Ilmiy ishi asosiy mazmunini ingliz tilida bayon qilishga qiynaladi biroq tadqiqot mavzusi, ob’yekti, yangiligini

		aytib bera oladi. Tushuntirishda chalkashliklarga yo‘l qo‘yiladi. Mavzu bo‘yicha savollar berilganida inglizcha nutqni tushunishda qiynaladi. Aniqlik kirituvchi savollar beradi.
	0-13	Savol bo‘yicha aniq tasavvurga ega emas; inglizcha nutqni tushunmaydi. Javob bera olmaydi.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

Ingliz tili

1. A.A. Ismailov, V.A. Fyodorov, Home Study Book (Zero level, Elementary level). – T.; 2008.
2. A.A. Ismailov, V.A. Fyodorov, O.Morozova English for market economy. – T.; 2008.
3. Don Shiach. How to write essay. – Oxford. 2009.
4. Martin Hewings. Advanced Grammar in use. Cambridge. 1998
5. K.N. Kachalova, Ye.Ye. Izrailevich. Prakticheskaya grammatika angliyskogo yazыka. – M.;Bishkek, 2004.

Nemis tili

1. A.B. Abdullayeva, D.R. Mirsodiqova und andere. Deutsch 2. –Toshkent, 2009.
2. A.B. Abdullayeva. Deutsch. – Toshkent, 2009.
3. S.Saidov. Deutsche Grammatik in Ubungen. – Toshkent, 2003.
4. S.A. Ziyayeva, S.D. Novikova, Die Ubersetzung in die Muttersprache und ins Deutche. T.; 2010.

Fransuz tili

1. A. Volte. Belle ville “Methode de français”. Cahiers d’exercises. –Belgique, 2004.
2. M.N. Popova, J.A. Kazakova, G.M. Kovalchuk. Fransuz yazыk. – M.; 2007.
3. Ph.Dominique. Le noveau sans frontiers. Paris, 1998
4. O.V. Saxno, R.S. Ibragimova. La vie de l’Ouzbekistan et de la France. – T.; 2002.

Qo‘shimcha adabiyotlar

Ingliz tili

1. Krыlova L.R. Sbornik uprajneniy po grammatike angliyskogo yazыka. – M., Knijnыy dom, 2003
2. Boqiyeva G.X., Irisqulov M.T. In Touch Forever – Toshkent, 2006
3. Mo‘minov O. Public relations. Istoriya i teoriya. –Tashkent, Ijod dunyosi, 2004
4. Inglizcha-ruscha, ruscha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha lug‘at (barcha nashrlari)

Internet saytlari

1. www.toefl.com
2. www.englishtrairing.ru
3. www.lingua.ru
4. www.teachingenglish.org.uk
5. www.onestopenglish.com

6. www.businessenglishonline.net
7. www.elgazette.com

Nemis tili

1. O.T. Pankova. Uchebnik nemeskogo yazыka dlya gumanitarnыx vuzov. – M., 1984.
2. I.I.Bobenko. Uchebnik nemeskogo yazыka kak vtorogo inostrannogo. –M.: Vыs shk., 1996.
3. Nemischa-ruscha, ruscha-nemischa, nemischa-o‘zbekcha lug‘at (barcha nashrlari)
4. Mamatov V. va boshq. Deutsch für Hochschulen. – Toshkent 2003.
5. Yelina N. P. i dr. Deutsch. –Toshkent 2003.
6. Tangram 1B. Deutsch als Fremdsprache. – Ismaning, Deutschland. 2002.
7. Autorenkollektiv. Studio. Deutschland, 2008.

Internet saytlari

1. www.regma.de
2. www.krie.de
3. www.zum.de
4. www.lehrer-online.de
5. www.leixilotte.de
6. .lexikon.freenet.de/Literaturdidaktik

Fransuz tili

1. Z. Noutchié Njiké Civilisation progressive de la Francophonie. –Paris, 2003
2. E.S.Kouvchinova «Manuel de français» Moskva. «Vыsshaya shkola» - 1987
3. Kosteskaya Ye.O., Kardanivskiy V.I. Fransuzkiy yazыk. Prakticheskaya grammatika. –M.,
Vыsshaya shkola, 2002
4. Fransuzcha-ruscha, ruscha-fransuzcha lug‘at. Barcha nashrlari.
5. Fransuzcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-fransuzcha lug‘at. Barcha nashrlari

Internet saytlari

1. www.granddictionnaire.com
2. www.francophonnie.hacherre-livre.com
3. www.portail.lettres.net
4. www.citationsdumonde.com
5. www.français-affaires.com